



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 4/2 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 9, НОМЕР 4/2

LOOK TO THE PAST

VOLUME 9, ISSUE 4/2



ТОШКЕНТ-2026

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ермегов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайдон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Баҳадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Аҳмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллажаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робидинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети


Турсунова Юлдуз Бобоқулловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Рахбархон Муртазаева ЭЛЕМЕНТЫ МУЛЬТИКУЛЬТУРАЛИЗМА В ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКЕ УЗБЕКИСТАНА: НОРМЫ, ИНСТИТУТЫ И ПРАКТИКИ.....	5
2. Боходир Эшов, Гайбулла Уралов ИЗ ИСТОРИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ВОЕННЫХ ОТНОШЕНИЙ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ ДИНАСТИИ МАНГЫТОВ.....	14
3. Nilufar Djurayeva XOTIN-QIZLAR TASHKILOTLARINING SHAKLLANISH TARIXI VA ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	21
4. Бекзод Пайзуллаев ОСНОВНЫЕ ТОРГОВЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ МЕЖДУ БУХАРСКИМ ЭМИРАТОМ И КОКАНДСКИМ ХАНСТВОМ.....	44
5. Farhod Usmanov O‘ZBEKISTONDA BOLALAR QAROVSIZLIGINI BARTARAF ETISHDA BOLALAR UYLARINING AHAMIYATI.....	53
6. Baxtiyor Xudoyberdiyev MALLAXON DAVRIDA QO‘QON XONLIGI VA BUXORO AMIRLIGI O‘RTASIDAGI MUNOSABATLAR.....	60
7. Azamat Abduraxmonov SURXONDARYODA MADANIY MEROS YODGORLIKLARINI ILMIY TADQIQ ETISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI: TARIXIY TAHLIL (XIX asrning ikkinchi yarmidan - hozirgi kungacha).....	65
8. Фаррух Акчаев ЎЗБЕКОНА МИЛЛИЙ ВА ДИНИЙ ТАРБИЯ УСУЛЛАРИНИНГ МАРОСИМЛАРДА АКС ЭТИШИ.....	72
9. Shuxrat Bozorov ALEKSANDR BYORNSNING BUXORO AMIRLIGIDAGI DIPLOMATIK VA JOSUSLIK MISSIYASI: GEOSIYOSIY MAQSADLAR VA TARIXIY TAHLIL (1832-yil).....	81
10. Татьяна Дорошенко ФОРМИРОВАНИЕ АРМИИ В.АНДЕРСА В УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ.....	87
11. Наим Обломуратов СОҲИБҚИРОН МЕРОСИ ВА ЗАМОНАВИЙ ТАРИХИЙ ТАФАККУР.....	96
12. Nargiza Choriyeva SAMARQAND VILOYATINING TURIZM SALOHİYATI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	104



Shuxrat Azamiddinovich Bozorov,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti doktoranti

**ALEKSANDR BYORNSNING BUXORO AMIRLIGIDAGI DIPLOMATIK VA
JOSUSLIK MISSIYASI: GEOSIYOSIY MAQSADLAR VA TARIXIY TAHLIL (1832-yil)**

For citation: Shukhrat A. Bozorov. THE DIPLOMATIC AND INTELLIGENCE MISSION OF ALEXANDER BURNES IN THE EMIRATE OF BUKHARA: GEOPOLITICAL OBJECTIVES AND HISTORICAL ANALYSIS (1832). Look to the past. 2026, vol. 9, issue 4/2.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.19846422>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada XIX asrning birinchi yarmida Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan murakkab geosiyosiy jarayonlar fonida 1832-yilda Aleksandr Byornsning Buxoro amirligiga amalga oshirgan missiyasi kompleks tarixiy-tahliliy yondashuv asosida o'rganiladi. Tadqiqotda Byorns faoliyatining rasmiy diplomatik vazifalari bilan bir qatorda uning yashirin razvedkaviy maqsadlari, Nasrullohxon saroyidagi muzokaralar jarayoni, shuningdek, amirlikning siyosiy tizimi, iqtisodiy hayoti va harbiy salohiyatiga oid to'plangan ma'lumotlar ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Maqolada Byorns kuzatuvlari asosida Buxoro amirligining tashqi siyosatda ehtiyotkorlikka asoslangan strategiyasi, savdo yo'llari va karvon tizimi, bojxona amaliyoti hamda xalqaro savdo aloqalarining o'ziga xos jihatlari ochib beriladi. Shuningdek, ushbu missiyaning Britaniya imperiyasining Markaziy Osiyodagi strategik manfaatlari bilan uzviy bog'liqligi va uning "Buyuk o'yin" doirasidagi dastlabki bosqichlardan biri sifatidagi o'rni asoslab beriladi.

Tadqiqot natijalari Aleksandr Byorns tomonidan to'plangan ma'lumotlarning nafaqat o'sha davr diplomatik siyosatida, balki keyingi tarixshunoslikda ham muhim manba sifatida xizmat qilganini ko'rsatadi. Mazkur ish Markaziy Osiyo tarixini, xususan, Buxoro amirligining XIX asr boshlaridagi tashqi siyosiy va iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Aleksandr Byorns, Buxoro amirligi, Nasrullohxon, Buyuk o'yin, Britaniya imperiyasi, diplomatik missiya, razvedka faoliyati, Markaziy Osiyo, karvon savdosi, xalqaro savdo aloqalari.

Бозоров Шухрат Азамиддинович,
Докторант Шахрисабзского государственного
педагогического института

**ДИПЛОМАТИЧЕСКАЯ И РАЗВЕДЫВАТЕЛЬНАЯ МИССИЯ АЛЕКСАНДР
БЕРНС В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ: ГЕОПОЛИТИЧЕСКИЕ ЦЕЛИ И
ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ (1832 год)**

АННОТАЦИЯ

В данной статье на основе комплексного историко-аналитического подхода исследуется миссия Александра Бёрнса в Бухарское эмиратство в 1832 году в контексте сложных геополитических процессов, сформировавшихся в первой половине XIX века в Центральной Азии. В исследовании анализируются не только официальные дипломатические задачи Бёрнса, но и его скрытые разведывательные цели, ход переговоров при дворе Насруллахана, а также собранные им сведения о политической системе, экономической жизни и военном потенциале эмирата.

На основе наблюдений Бёрнса раскрываются особенности внешнеполитической стратегии Бухарского эмирата, основанной на осторожности, а также анализируются торговые пути, караванная система, таможенная практика и специфика международных торговых связей. Особое внимание уделяется взаимосвязи данной миссии со стратегическими интересами Британской империи в Центральной Азии и её значению как одного из начальных этапов «Большой игры».

Результаты исследования показывают, что собранные Александром Бёрнсом материалы имели важное значение не только для дипломатической практики того времени, но и для последующей историографии. Данная работа способствует более глубокому пониманию внешнеполитического и экономического развития Бухарского эмирата в первой половине XIX века.

Ключевые слова: Александр Бёрнс, Бухарский эмират, Насруллахан, Большая игра, Британская империя, дипломатическая миссия, разведывательная деятельность, Центральная Азия, караванная торговля, международные торговые связи.

Shukhrat A. Bozorov,
Doctoral Researcher of Shahrizabz
State Pedagogical Institute

**THE DIPLOMATIC AND INTELLIGENCE MISSION OF ALEXANDER BURNES
IN THE EMIRATE OF BUKHARA: GEOPOLITICAL OBJECTIVES AND HISTORICAL
ANALYSIS (1832)**

ABSTRACT

This article examines the mission of Alexander Burnes to the Emirate of Bukhara in 1832 within the context of the complex geopolitical processes that emerged in Central Asia in the first half of the nineteenth century, using a comprehensive historical-analytical approach. The study analyzes not only Burnes' official diplomatic objectives, but also his covert intelligence activities, the course of negotiations at the court of Nasrullah Khan, as well as the information he collected on the political system, economic life, and military potential of the emirate.

Based on Burnes' observations, the article reveals the features of the Bukhara Emirate's cautious foreign policy strategy and examines its trade routes, caravan system, customs practices, and the specifics of its international trade relations. Particular attention is paid to the connection of this mission with the strategic interests of the British Empire in Central Asia and its role as one of the early stages of the "Great Game."

The findings demonstrate that the information gathered by Alexander Burnes was significant not only for the diplomatic practice of the time but also for subsequent historiography. The study contributes to a deeper understanding of the foreign policy and economic development of the Bukhara Emirate in the early nineteenth century.

Index Terms: Alexander Burnes, Emirate of Bukhara, Nasrullah Khan, Great Game, British Empire, diplomatic mission, intelligence activity, Central Asia, caravan trade, international trade relations.

Kirish:

XIX asrning birinchi yarmi Markaziy Osiyo tarixida keskin geosiyosiy raqobat kuchaygan davr sifatida ajralib turadi. Bu davrda mintaqa yirik imperiyalar - avvalo, Britaniya va Rossiya o'rtasidagi strategik manfaatlar to'qnashuvi markaziga aylandi. Tarixshunoslikda "Buyuk o'yin" nomi bilan ma'lum bo'lgan ushbu jarayon Markaziy Osiyoning siyosiy va iqtisodiy hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, Buxoro amirligi mintaqadagi muhim siyosiy markazlardan biri sifatida tashqi kuchlarning e'tiborini tortdi.

1832-yilda ingliz sayyohi va diplomati Aleksandr Byornsning Buxoro amirligiga tashrifi ana shu geosiyosiy vaziyat mahsuli sifatida yuzaga keldi. Rasmiy jihatdan savdo va diplomatik aloqalarni rivojlantirish maqsadida amalga oshirilgan ushbu missiya aslida Britaniya imperiyasining mintaqadagi strategik manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan razvedkaviy vazifalarni ham o'z ichiga olgan edi. Byorns tomonidan to'plangan ma'lumotlar Buxoro amirligining siyosiy tuzilmasi, iqtisodiy hayoti va harbiy imkoniyatlarini o'rganishda muhim tarixiy manba sifatida ahamiyat kasb etadi.

Dolzarbligi:

Mazkur mavzuning dolzarbligi, avvalo, XIX asr boshlarida Markaziy Osiyoda yuz bergan geosiyosiy jarayonlarni yangi ilmiy yondashuvlar asosida qayta ko'rib chiqish zarurati bilan belgilanadi. Aleksandr Byorns missiyasi nafaqat diplomatik aloqalar tarixining muhim epizodi, balki "Buyuk o'yin" doirasida amalga oshirilgan dastlabki razvedkaviy harakatlardan biri sifatida ham alohida e'tiborga loyiqdir.

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda Byorns faoliyati ko'proq umumiy tarixiy tavsif darajasida yoritilgan bo'lib, uning Buxoro amirligidagi aniq siyosiy, iqtisodiy va harbiy kuzatuvlari hamda ularning Britaniya tashqi siyosatiga ta'siri yetarlicha kompleks tahlil qilinmagan. Mazkur tadqiqot ushbu bo'shliqni to'ldirishga qaratilganligi bilan ham dolzarb hisoblanadi.

Metodlar:

Tadqiqot jarayonida tarixiylik, tizimlilik va qiyosiy tahlil tamoyillariga asoslangan ilmiy yondashuvlardan foydalanildi. Asosiy manba sifatida Aleksandr Byornsning "Travels into Bokhara" asari hamda unga oid tarixiy hujjatlar va zamonaviy ilmiy tadqiqotlar tahlil qilindi.

Shuningdek, deskriptiv (tasviriy) metod orqali Buxoro amirligining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayoti yoritildi, qiyosiy-tahliliy usul yordamida esa Byorns kuzatuvlari boshqa tarixiy manbalar bilan solishtirildi. Geosiyosiy yondashuv asosida esa mazkur missiyaning xalqaro munosabatlar tizimidagi o'rni va ahamiyati aniqlab berildi.

Tadqiqot natijalari:

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Aleksandr Byornsning Buxoro amirligiga amalga oshirgan missiyasi rasmiy diplomatik tashrif doirasidan ancha kengroq ma'noga ega bo'lgan. U tomonidan to'plangan ma'lumotlar Buxoro amirligining ichki siyosiy tizimi, iqtisodiy aloqalari, savdo yo'llari va harbiy salohiyati haqida batafsil tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

Byorns kuzatuvlari asosida Buxoro amirligining tashqi siyosatda ehtiyotkorlikka asoslangan strategiyasi, savdo aloqalarining kengligi hamda karvon savdosi tizimining rivojlanganligi aniqlangan. Shu bilan birga, uning ma'lumotlari Britaniya imperiyasining Markaziy Osiyodagi siyosatini shakllantirishda muhim rol o'ynagan.

Natijada, Byorns missiyasi "Buyuk o'yin" jarayonining dastlabki bosqichlaridan biri sifatida baholanib, u orqali to'plangan ma'lumotlar keyingi diplomatik va harbiy qarorlar uchun muhim asos bo'lib xizmat qilgani ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Asosiy qisim:

XIX asrning birinchi yarmida Markaziy Osiyo hududi Yevrosiyo geosiyosiy makonining eng muhim nuqtalaridan biriga aylandi. Hindiston ustidan nazoratni qo'lga kiritgan Britaniya imperiyasi shimoliy chegaralar xavfsizligini ta'minlashni ustuvor vazifa deb bildi. Aynan shu jarayonda 1832-yilda Aleksandr Byornsning Buxoro amirligiga tashrifi amalga oshirildi. U rasmiy ravishda savdo va diplomatik aloqalarni rivojlantirish maqsadida yuborilgan bo'lsa-da, missiyaning yashirin maqsadi strategik razvedka bilan bog'liq edi[1]. Aleksandr Byorns (1805-1841) yashab o'tgan ingliz sayyohi va josusi. U fors, arab va hind tillarida ravon gapira olgan. U "Travels into

Bokhara” ya’ni “Buxoroga sayohat” nomli asar yozgan. U kitobida yo’lda uchragan qiyinchiliklarni, turli xalqlarga taalluqli ijtimoiy, siyosiy, diniy va etnik voqea hodisalarni bayon qilgan. Bu kitob Aleksandr Byornsga Buyuk Britaniyada katta shon-shuhrat keltirdi. Unda Buxoro amirligi haqida ham qimmatli ma’lumotlar keltirilgan edi. 1830-yillarda Buxoro amirligida Nasrullohxon hukmronlik qilayotgan edi. U markazlashuv siyosatini olib borib, ichki muxolifatni bostirishga harakat qildi. Byorns saroyga kirish imkoniyatiga ega bo’lgan bo’lsa-da, doimiy kuzatuv ostida bo’lgan[2]. Bu holat amirlik tashqi siyosatda ehtiyotkor va yopiq siyosat yuritganini ko’rsatadi.

Byorns o’z kundaliklarida Buxoro amirining tashqi kuchlarga nisbatan ishonchsizligini qayd etadi. U savdo yo’llari, boj tizimi va siyosiy elita haqida ma’lumot to’pladi[3:177-b]. Muzokaralar jarayonida Britaniya bilan bevosita harbiy ittifoq masalasi ko’tarilmagan bo’lsa-da, Hindiston bilan savdo aloqalarini kengaytirish istiqbollari muhokama qilingan. Britaniya va Rossiya imperiyalari o’rtasidagi raqobat “Buyuk o’yin” sifatida tarixga kirgan. Byorns missiyasi aynan shu jarayonning dastlabki bosqichlaridan biri hisoblanadi[4]. Rossiyaning janubga siljishi ehtimoli Britaniya uchun xavfli deb baholangan. Shu sababli Byorns tomonidan to’plangan ma’lumotlar Londondagi siyosiy doiralarda muhim ahamiyat kasb etdi.

Byorns Buxoroning iqtisodiy hayotini batafsil tasvirlagan. U karvon savdosi, ipak va paxta mahsulotlari eksporti, soliq yig’ish mexanizmlarini tahlil qilgan[5]. Uning yozishicha, Buxoro Eron, Afg’oniston va Rossiya bilan faol savdo aloqalariga ega bo’lgan.

Aleksandr Byorns Buxoro bozorlarini shunday ta’riflaydi: “Maydonning o’rtasida mavsumiy mevalar bitta ustunga o’rnatilgan to’rtburchak mato soyasi ostida (Bu yerda savdogarlar mahsulotini quyoshdan himoya qiladigan bir ustunli katta soyobon nazarda tutilmoqda –B.T.) sotiladi. Dehqonlarning uzum, qovun, o’rik, olma, shaftoli va olxo’ri kabi mevalariga xaridorlarning ko’pligidan hayratda qolasiz. Ko’chadan o’tish qiyin, chunki gavjum odamlar orasida yurgan paytingizda, ot yoki eshak mingan odam sizga to’qnashib ketishi xavfi bor. Eshaklar juda chidamli, ustidagi yuklari bilan tez harakatlanadi. Ko’chalarda yengil aravalar qatnaydi. Chunki ko’chalar g’ildirakli arava yurishi uchun qulaydir. Bozorning har bir joyida yevropacha uslubda tayyorlangan temir somovarda issiq choy qaynatiladi. Somovarnig ichidan o’tgan teshik truba choyni issiq saqlaydi. Buxoroliklar choy ichishni yaxshi ko’radi, ular choyni shakarli va shakarsiz, sutli va sutsiz, yog’ va tuz bilan ham istemol qilishadi. Choy sotuvchilari yonidan “rahuti jon” yoki hayot lazzati - uzum murabbosini yoki maydalangan muz bilan aralashtirilgan sirop sotiladi. Muzning bu qadar ko’pligi Buxoroning eng katta ne’matlaridan biri bo’lib, qishgacha uni topish mumkin. Muz qishda g’amlanadi va eng kambag’al odamlar ham xarid qila oladigan narxda sotiladi. Buxoroda hech kim suvni muzlatmasdan ichishni xayoli ham keltirmaydi. Hatto tilanchilarning muz sotib olayotganini ko’rish mumkin. Registonda deyarli hamma narsani Yevropaning zargarlik buyumlari va idishlari, sifatsiz Xitoy choyni, Hindiston shakari, Manilla ziravorlarini sotib olish mumkin. Shom vaqti kirishi bilan bu gavjum shahar yopiladi, podshoning nog’orasi chalinadi. Bu harakat shaharning har bir burchagida boshqalar tomonidan takrorlanadi va aniq bir soatda hech kimga chiroqsiz ko’chaga chiqishga ruxsat berilmaydi. Har bir rastada katta mato to’plamlari do’konlarda qoldiriladi. Ushbu tartib-qoidalar shahar mirshablar tomonidan yaxshi nazorat qilinadi.” [3:175,176-b] U o’zbeklarni tasvirlab, “O’zbeklar sodda xalq, garchi ular sizni yomon ko’rgandek yoki g’azablangedek ohangda gaplashsa ham. Ular bilan til topish oson, Ular biz bilan ko’rishganda odatiy salomda emas balki boshqa iboralardan foydalanar edi. Ulardan keng tarqalgani “Molingiz ko’paysin” yoki “umringiz uzoq bo’lsin” kabi iboralardir. Shunga qaramay, ular biz bilan o’tirishdan oldin qo’llarini cho’zib, soqolini silab, Qur’ondan “fatha” o’qirdilar.” [3:177-b] U qul bozorini tasvirlab shunday dedi. “Men har shanba kuni ertalab bo’ladigan qul bozoriga bordim. O’zbeklarning ishlarini asosan qullar bajaradi. Bu qullar asosan turkmanlar tomonidan Erondan olib kelinib, Buxoroda sotiladi. Bu yerda qullar 30, 40 ta rastada sotiladi. Men bozorga borgan kunim 6 ta sotilayotgan qulni ko’rdim. Avvalo, ularning kelib chiqishi va qanday ushlangani haqida so’raladi, keyin esa sunniy yoki shia ekani tekshiriladi. O’zbeklar shia musulmonlarini haqiqiy mo’min deb hisoblamaydi. Ular uchun shialar boshqa din vakillaridan ham jirkanchliroqdir. Xaridor qulning kofir ekaniga ishonch hosil qilgach, uning moxov kasalligi bor yoki yo’qligini tekshiradi.

Undan keyin esa, qulning narxini savdolashadi. Uchta fors yigiti o'ttiz tillaga sotildi. Men ulardan birining, Mashhadning janubida qo'ylarini boqib yurganida qanday qo'lga olinganini aytib berganini eshitdim. Lekin men mamlakatning har tarafida qullarga mehr bilan munosabatda bo'lishiga ishonдим. Ularning ko'pchiligi ozod qilinganidan keyin bu mamlakatda qolishi buning haqiqatligini tasdiqlaydi. O'zbeklar forslarni sotib olish orqali, ularning mazhabidan voz kechishiga sababchi bo'lib, yaxshilik qilayotganiga ishonadi. Buxoro bozorlarini asosan Urganch ta'minlaydi.

Aleksandr Byorns Buxoroning suv ta'minoti haqida ham tuxtalib, shunday deydi: "Yigirmaga yaqin karvonsaroyda turli xalqlarning savdogarlari joylashgan bo'lib, to'rtburchak toshdan qurilgan yuzga yaqin hovuz va favvoralar uning ko'p sonli aholisini suv bilan ta'minlaydi. Shaharga Samarqand (hozirgi Zarafshon – B.T) daryosidan suv olib kelinadi. Buxoroning suv ta'minoti yaxshi emas. Daryo shahardan 6 mil (1 mil 1,609 kmga teng) uzoqlikda, kanal esa har 15 kunda bir marta ochiladi. Yozda ba'zida oylab suv bo'lmaydi. Biz Buxoroda bo'lganimizda kanallarda oltmish kundan beri suv yo'q edi. Mahalliy aholining aytishicha, aynigan suv gvineya qurti kasalligining sababchisidir. Bu qurtlar Ayyub payg'ambarning tanasidagi qurtlar bilan bir xil deb qo'shib qo'yishadi"[1:250-b].

U dinga qarshi jinoyat qilganlar haqida ham ma'lumot berib o'tadi. "O'sha kuni ertalab men qul bozorida katta bozorga bordim va mening e'tiborim dinga qarshi jinoyat qilganlarga tushdi. Ularning to'rttasi o'tgan juma namozi vaqtida uxlab qolgan va yana bir o'spirin jamoat joyida chekkan edi. Ularning hammasi bir-biriga bog'langan edi. Chekishda ayblangan yigit oldinda qo'lida trubka ushlab ketayotgan edi. Qo'llarida qalin qamchi tutgan mirshablar ularning orqasidan: "Ey musulmonlar qonunni buzganning jazosi shunday bo'ladi" deb baqirardi. Buxoroda diniy nazariy va amaliy qonunlarning zidligi shu yerda ko'rinadi. Bu yerda siz tamaki mahsulotlarini ochiq sotib olishingiz mumkin, ammo jamoat joyida cheksangiz darhol jazolanasiz yoki boshqalarga namuna sifatida eshakka mindirilib, xalq orasida sazoyi qilinmasiz. Agar biror kishi juma kuni uchayotgan kaptarni tutsa, uning bo'yniga o'lik qush osib, tuyaga o'tqazilgan holda sazoyi qilinadi. Agar kimdir namoz vaqtida ko'chada yursa, unga jarima yoki qamoq jazosi tayinlanadi [1:180-b]... Amirlikning harbiy tuzilmasi asosan an'anaviy qo'shinlardan iborat bo'lib, qal'alar tizimi muhim ahamiyat kasb etgan[6]. Byorns qal'alar joylashuvi va safarbarlik imkoniyatlarini qayd etgan. Ma'muriy tizim esa amir hokimiyatiga to'liq bo'ysungan.

Byornsning "Travels into Bokhara" asari Yevropada katta qiziqish uyg'otgan. Ushbu manba G'arb tarixshunosligida Markaziy Osiyo haqidagi tasavvurlarni shakllantirishda muhim rol o'ynagan[7]. Zamonaviy tadqiqotchilar esa Byorns ma'lumotlarini tanqidiy yondashuv asosida qayta baholamoqda.

Xulosa qilib aytganda, mazkur maqola doirasida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, 1832-yilda Aleksandr Byornsning Buxoro amirligiga amalga oshirgan missiyasi oddiy diplomatik tashrifdan ko'ra kengroq mazmun kasb etgan bo'lib, u Britaniya imperiyasining Markaziy Osiyodagi geosiyosiy strategiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Rasmiy ravishda savdo va diplomatik aloqalarni rivojlantirish maqsadida yuborilgan Byorns amalda mintaqaning siyosiy, iqtisodiy va harbiy holatini chuqur o'rganishga qaratilgan razvedkaviy faoliyat olib borgan.

Tadqiqot natijalari asosida aniqlanishicha, Byorns tomonidan qayd etilgan ma'lumotlar Buxoro amirligining ichki boshqaruv tizimi, tashqi siyosiy yo'nalishlari hamda savdo-iqtisodiy aloqalarini yoritishda muhim manba hisoblanadi. Ayniqsa, uning kuzatuvlari orqali amirlikning tashqi ta'sirlarga nisbatan ehtiyotkor siyosat yuritgani, karvon savdosining rivojlanganligi va mintaqalararo savdo aloqalarining keng qamrovga ega bo'lgani o'z tasdig'ini topadi.

Shu bilan birga, Byorns missiyasi "Buyuk o'yin" doirasida Britaniya imperiyasining dastlabki strategik qadamlardan biri sifatida baholanib, uning natijalari keyingi diplomatik va harbiy qarorlar qabul qilinishida muhim axborot manbai bo'lib xizmat qilgan. Mazkur jihatlar ushbu missiyaning nafaqat o'z davrida, balki keyingi tarixiy jarayonlarda ham muhim o'rin tutganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, Aleksandr Byorns faoliyati Buxoro amirligining XIX asr boshlaridagi siyosiy va iqtisodiy hayotini o'rganishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur maqola

esa ushbu tarixiy jarayonlarni tizimli ravishda tahlil qilish orqali Markaziy Osiyo tarixshunosligida mavjud ilmiy qarashlarni boyitishga xizmat qiladi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Burnes A. Travels into Bokhara. London, 1834.
2. Hopkirk P. The Great Game. London, 1990.
3. Becker S. Russia's Protectorates in Central Asia. Cambridge, 1968.
4. Morrison A. Russian Rule in Samarkand. Oxford, 2008.
5. Bregel Y. An Historical Atlas of Central Asia. Leiden, 2003.
6. Khalid A. The Politics of Muslim Cultural Reform. Berkeley, 1998.
7. Meyer K., Brysac S. Tournament of Shadows. Washington, 1999.
8. Исроилова, С. М., & Мадумарова, М. Д. (2022). Поиск Наиболее Оптимальных Способов Обучения Русскому Иностранному. Вопросы науки и образования, (1 (157)), 8-14.
9. Бердиев.А.А. Бухоро амирлигининг XVIII-XIX асрларда ташқи савдоси ва дипломатик алоқалари ҳақида айрим маълумотлар. Тадқиқот.уз махсус сони Тошкент 2020. махсус сон – С.198-208
10. Бердиев А.А. XVIII – XIX асрларда Бухоро амирлигининг халқаро муносабатлардаги ўрни. Тошкент давлат педагогика унверситетининг Илмий ахбаротлари илмий-назарий журнал 2021-йил 4-сон 30-июль Тошкент,– Б. 121-130.

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000